

**GLOBAL RAQOBATBARDOSHLIK STRATEGIYASI: BILIM, O‘TKIR ZEHN
VA HALOLLIK UYG‘UNLIGI.****Axmedov Farxod Saydaliyevich***podpolkovnik Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik**fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi**+99899 8226327*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global mehnat bozori va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida inson kapitalining ma’naviy jihatlari tahlil qilinadi. Kelajak mutaxassislari uchun faqatgina bilim va texnik ko‘nikmalar yetarli emasligini, balki “halollik vaktsinasi” va “ma’naviy filtr” strategik ustunlik omili ekanligini asoslab beradi. Antik davr donishmandi Sugrot, Sharq mutafakkiri Ahmad Yassaviy va ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning qarashlari zamonaviy professionalizm mezonlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy immunitetning roli va global raqobatda barqaror rivojlanishga erishishning etik tamoyillari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Global mehnat bozori, halollik vaktsinasi, ma’naviy kapital, o‘tkir zehn, korrupsiyaga qarshi immunitet, professionalizm, strategik ustunlik, ishonch iqtisodiyoti.*

“Halollik vaktsinasi” bilan emlangan yangi avlodni tarbiyalash ustuvor vazifamizdir.

Shavkat Mirziyoyev

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan davlat organlarining O‘zbekiston Respublikasi hududida va (yoki) undan tashqarida sodir etiladigan, O‘zbekiston Respublikasidagi tovar yoki moliya bozorida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlariga (harakatsizligiga) nisbatan tatbiq etiladi.¹⁸¹

XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib, global iqtisodiy makon va mehnat bozori tub transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi natijasida mutaxassislarga qo‘yiladigan an’anaviy talablar o‘zgarib, “inson kapitali” tushunchasi yangi ma’no kasb etmoqda. Bugungi kunda

¹⁸¹ O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 5-fevraldagi O‘RQ-1117-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son

global raqobatbardoshlik nafaqat texnologik ustunlik yoki moddiy resurslar bilan, balki intellektual salohiyat va ma’naviy-etik normalarning uyg‘unligi bilan o‘lchanmoqda.

Raqobat - xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.¹⁸²

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va mehnat taqsimoti tizimida “ishonch” eng qimmatli kapitalga aylandi. Dunyo bozorida brendlar, davlatlar va korporatsiyalar o‘rtasidagi aloqalar shaffoflik va halollik tamoyillariga tayanmoqda. Shu bois, kelajak mutaxassisi uchun ma’naviy poklik va halollik shunchaki axloqiy fazilat emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik resursdir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “halollik vaksinasi” konsepsiyasi aynan jamiyatning har bir bo‘g‘inida ma’naviy immunitetni shakllantirish orqali global bozorda munosib o‘rin egallashga qaratilgandir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasida intellekt va axloq uyg‘unligi masalasi insoniyat sivilizatsiyasi tarixida doimo markaziy o‘rinni egallab kelgan. Qadimgi yunon mumtoz falsafasining asoschisi, afinalik birinchi faylasufi Suqrot “halol fikr va o‘tkir zehn” birligini baxtning asosi deb hisoblagan bo‘lsa, Sharq renessansi mutafakkirlari, xususan, buyuk mutasavvuf va “karamati zo‘r” valiy Ahmad Yassaviy asarlarida nafsni tiyish va iroda mustahkamligi liderlikning oliy namunasi sifatida talqin etilgan.

O‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma’rifatparvar [shoir](#), [dramaturg](#), [jurnalist](#), [olim](#), [davlat](#) va jamoat [arbovi](#) Abdulla Avloniy ning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot...” degan chorlovi bugungi globallashuv davrida kadrlar tayyorlashning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, zamonaviy iqtisodiy sharoitda halollikning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi sifatidagi roli, uning “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar) tarkibidagi o‘rni va global raqobatbardoshlikka ta’siri yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Aksariyat hollarda korrupsiya va unga qarshi kurash faqat huquqiy va iqtisodiy jazo choralari nuqtai nazaridan o‘rganiladi, biroq masalaning ma’naviy-psixologik asosi bo‘lgan “ichki filtr” va “etik kompas” masalasi ilmiy tahlilga muhtoj.

¹⁸² 4-moddaning o‘n uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-954-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2024-y., 03/24/954/0682-son

Global ishchi kuchi bozorida mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishda bilim, o‘tkir zehn va halollik uyg‘unligining nazariy-amaliy ahamiyatini ochirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- global mehnat bozorida zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish va “ishonch kapitali” tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida asoslash;

- tarixiy-falsafiy meros (Suqrot, Yassaviy, Avloniy) va zamonaviy professionalizm mezonlari o‘rtasidagi vorisiylikni o‘rganish;

- “halollik vaksinasi” tushunchasining korrupsiyaga qarshi ma’naviy immunitet shakllanishidagi rolini yoritish;

Kelajak kadrlarini shakllantirishda “ma’naviy filtr” tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.

“Halollik” tushunchasi shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki mutaxassisning global bozordagi “yashirin raqobatbardoshlik ustunligi” sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda bilim va zehning etik filtersiz qo‘llanilishi jamiyat uchun “risk” (xatar) ekanligi, “halollik vaksinasi” esa tizimli inqirozlarning oldini oluvchi asosiy vosita ekanligi nazariy jihatdan dalillanadi.

Metodologik asosi sifatida tizimli yondashuvni olib ko‘radigan bo‘lsak qiyosiy-tarixiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlari jarayonida axborotlarni to‘plash va qayta ishlashda sifat tahlili usullaridan foydalanadigan bo‘lsak:

- tadqiqotda mutaxassisning professional kamoloti yaxlit bir tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bunda bilim, intellektual salohiyat va ma’naviy-etik filtrlar tizimining o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodidan foydalanish orqali global mehnat bozorida raqobatbardoshlik omillari o‘rtasidagi funksional aloqalar aniqlandi. Xususan, mutaxassisning ma’naviy immuniteti halollik vaksinasi butun tizimning barqarorligini ta’minlovchi hal qiluvchi bo‘g‘in ekanligi nazariy modellashtirildi.

- ushbu metod yordamida antik davr falsafasi Suqrotning “halol fikr” konsepsiyasi, Sharq ma’naviy merosi Ahmad Yassaviyning “nafs” ustidan g‘oliblik g‘oyalari va jadidchilik davri ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi o‘g‘itlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, o‘tmishdagi ma’naviy mezonlar va bugungi global bozor talablari o‘rtasidagi mantiqiy vorisiylik o‘rganildi. Qiyosiy tahlil natijasida ma’naviy poklik tushunchasining tarixiy transformatsiyasi va uning zamonaviy iqtisodiy munosabatlardagi yangi funksiyalari ochib berildi.

- tadqiqot davomida to‘plangan nazariy ma’lumotlar mantiqiy yakuniga yetkazildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ma’naviy-psixologik jihatlari va davlatimiz rahbari tomonidan Ongi va qalbi bolalikdan “halollik vaksinasi” bilan emlangan yangi avlodni kamolga etkazish ustuvor vazifamizdir. Bu borada BMTning Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resurs dasturini O‘zbekistonda keng joriy

etishdan manfaatdormiz”, - dedi davlat rahbari. Ilgari surilgan “halollik vaksinasi” konsepsiyasi mantiqiy umumlashtirilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka ta’siri bo’yicha xulosalar shakllantirildi. Mantiqiy usullar yordamida “Bilim + Halollik = Najot” formulasi akademik nuqtai nazardan dalillandi va uning kelajak kadrlar tayyorlash tizimidagi o’rni belgilandi.

- germenektivik va diskurs-tahlil: badiiy va falsafiy asarlardagi masalan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi va jamiyat arbobi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani ma’naviy allegoriyalar ijtimoiy voqelik kontekstida tahlil qilindi. Bu esa insonning ichki nazorat tizimi va uning tashqi professional faoliyatidagi korrelyatsiyasini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Mutaxassis salohiyatining jamiyat va iqtisodiyotga ta’siri tahlili

Mutaxassis tipi	Bilim va Zehn darajasi	Ma’naviy filtr (Halollik)	Natija (Jamiyat va iqtisodiyot uchun)
I-tip: Ideal mutaxassis	Yuqori	Mavjud	Barqaror rivojlanish, innovatsiya va ishonch kapitali
II-tip: Xatarli mutaxassis	Yuqori	Mavjud emas	Tizimli korrupsiya, iqtisodiy jinoyatlar va botqoqlik
III-tip: Samarasiz kadr	Past	Mavjud	Shaxsiy darajadagi halollik, lekin tizimda oqsash

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, II-tipdagi kadrlar o‘tkir zehni, lekin ma’naviy filtersiz jamiyat uchun eng katta xavfni tug‘diradi. Ularning faoliyati “opportunistik xulq-atvor” ya’ni shaxsiy manfaatni tizim manfaatidan ustun qo‘yish bilan tavsiflanadi. Bu esa o‘z navbatida xalqaro savdoda tranzaksiya xarajatlarining oshishiga va investitsion jozibadorlikning pasayishiga olib keladi.

“Halollik vaksinasi” — iqtisodiy barqarorlik omili sifatida, tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar korrupsiyaga qarshi kurashning ikki xil yondashuvini qiyoslaydi:

Ekstenziv yondashuv: Faqat nazorat va jazo choralarini kuchaytirish (tashqi bosim).

Intenziv yondashuv: “Halollik vaksinasi” orqali ma’naviy immunitetni shakllantirish (ichki ehtiyoj).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashqi nazorat (videokameralar, audit, jazo) bor joydagina ishlaydi. “Halollik vaksinasi” bilan emlangan mutaxassis esa Abdulla Avloniy aytganidek, tarbiyani “hayot-mamot masalasi” deb biladi va nazoratsiz muhitda ham halol mehnat tamoyiliga sodiq qoladi. Bu esa korporativ boshqaruvda nazorat xarajatlarini (monitoring costs) keskin kamaytiruvchi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichidir.

Ahmad Yassaviyning “nafsnı taslim etish” haqidagi hikmatlari bugungi biznes etikasidagi “Emotional Intelligence” (EQ) va “Self-Regulation” tushunchalari bilan to‘liq mos keladi.

Yuqori martabaga erishgan mutaxassisning moddiy boylikka ruju qo‘ymasligi, uning strategik qarorlar qabul qilishda xolisligini ta‘minlaydi.

Buyuk shoir, tarixchi, davlat arbobi va harbiy sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning bunyodkorlik falsafasi esa bugungi “Liderlik va ijtimoiy mas’uliyat” konsepsiyasining tarixiy ildizidir.

Global bozorda mutaxassisning “brendi” uning bilimi bilan emas, balki unga bo‘lgan ishonch (reputatsiya) bilan baholanadi.

Ma‘naviy poklik va halollik iqtisodiy o‘shishni tormozlovchi “tanish-bilishchilik” va “botqoqlik” zanjirini uzuvchi yagona vositadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bunyodkorlik falsafasiga ega kadrlar tizimni nafaqat saqlab qoladi, balki uni yangi bosqichga olib chiqadi.

Antik davr falsafasi va bugungi yuqori texnologik korporatsiyalar (Google, Microsoft, Apple) o‘rtasidagi vaqt masofasi ulkan bo‘lsa-da, ularning professional faoliyat poydevoriga qo‘ygan etik talablari hayratlanarli darajada mushtarakdir. Suqrotning “halol fikr va o‘tkir zehn” uyg‘unligi haqidagi qarashlari bugungi kunda Etik sun‘iy intellekt “Ethical AI” va Korporativ halollik “Corporate Integrity” siyosatining fundamental asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Suqrot uchun “halol fikr” – bu natijadan qat‘i nazar, haqiqatga intilishdir. U bilimning axloqsiz qo‘llanilishi shaxs va jamiyat uchun falokat ekanini ta‘kidlagan.

Bugungi kunda Google korporatsiyasining o‘z algoritmlari uchun ishlab chiqqan Sun‘iy intellekt tamoyillari “AI Principles” xuddi shu “halol fikr”ning raqamli ko‘rinishidir. Xususan, Adolatsiz tarafkashlikni yaratish yoki kuchaytirishdan qochish “Avoid creating or reinforcing unfair bias” tamoyili algoritmning “fikrlash” jarayonida halol bo‘lishini talab qiladi. Ya‘ni, o‘tkir zehn kuchli algoritm halol fikr etik filtr bilan boshqarilmasa, u ijtimoiy adolatsizlik quroliga aylanishi mumkin.

Suqrotning o‘z o‘limi oldidan ham o‘z tamoyillaridan voz kechmasligi – bu shaxsiy “integrity”ning eng yuqori cho‘qqisidir.

Zamonaviy biznes olamida, masalan, Microsoft korporatsiyasining Ishonchli hisoblash “Trustworthy Computing” va korporativ etika kodekslari shuni anglatadiki: kompaniya nafaqat qonun doirasida, balki axloqiy prinsiplar doirasida harakat qilishi shart. Bu siyosat mutaxassislardan qisqa muddatli foyda (nafs) va uzoq muddatli ishonch (halol fikr) o‘rtasida tanlov kelganda, ikkinchisini tanlashni talab etadi.

2-jadval. Suqrot falsafasi va zamonaviy korporativ siyosat korrelyatsiyasi

Suqrot tushunchasi	Korporativ muqobili (Google/Microsoft)	Mazmuni va mohiyati
Halol fikr	Ethical AI / Algorithmic Fairness	Algoritmlar va qarorlar inson huquqlarini buzmasligi va xolis bo‘lishi.
O‘tkir zehn	Innovation / High Tech Capability	Texnologik ustunlik va murakkab muammolarni yechish quvvati.
Uyg‘unlik (Baxt)	Sustainable Business / Trust Capital	Mijozlar ishonchi orqali erishiladigan uzoq muddatli barqaror muvaffaqiyat.
Ichki filtr (Daemoni)	Compliance & Integrity Standards	Tashqi nazoratsiz ham etik normalarga rioya qilish madaniyati.

Suqrot inson o‘zini-o‘zi anglamay turib, boshqalarni boshqara olmasligini uqtirgan. Bugungi kunda yirik texnologik gigantlar o‘z xodimlari uchun Ongsiz tarafkashlik bo‘yicha treninglar o‘tkazishi – bu amaliyotdagi ‘halollik vaksinasi’dir. Ya’ni, mutaxassisning ongiga halollik va xolislik filtri o‘rnatiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi takliflarni amaliyotga tatbiq etsak bo‘ladi:

Birinchidan, faqat professional ko‘nikmalarni (KPI) emas, balki mutaxassisning axloqiy barqarorligini baholovchi ‘Etik kompetensiya ko‘rsatkichi’ni joriy qilish.

Mazmuni: Mutaxassis murakkab vaziyatlarda (manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqqanda) qanchalik halol qaror qabul qila olishini testlovchi psixologik va situatsion metodikalarni kadrlar tanlovi (HR) jarayoniga kiritish.

Ikkinchidan, maqolada aytilgan Avloniy va Yassaviy g‘oyalarini shunchaki adabiyot darsi sifatida emas, balki ‘Kasbiy etika va korrupsiyaga qarshi kurash’ moduli sifatida barcha yo‘nalishlarga kiritish.

Taklif: Oliy ta’limda talabalarga real biznes va davlat boshqaruvi keyslari (Case Studies) orqali ‘halol qaror qabul qilish’ mashqlarini o‘tish. Masalan, ‘Sizga katta pora taklif qilishdi, lekin bu loyiha jamiyatga zarar keltiradi — qanday yo‘l tutasiz?’ kabi amaliy mashg‘ulotlar.

Uchinchidan, Global bozorda mutaxassisning reputatsiyasi uning diplomi kabi muhim bo‘lishi kerak.

Taklif: Mutaxassislarning ish faoliyati davomidagi halollik va professionalizm tarixini aks ettiruvchi (shaxsiy ma’lumotlar himoyalangan holda) raqamli reyting tizimini shakllantirish. Bu ‘tanish-bilishchilik’ (botqoqlik) zanjirini uzishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, Rahbar va xodimlar o‘rtasida ochiqlik va halollik muhitini yaratish.

Taklif: Tashkilotlarda Ochiq eshiklar “Open Door” siyosatini yuritish, bunda har qanday xodim tizimdagi xatolik yoki adolatsizlik haqida qo‘rqmasdan xabar bera olishi uchun “Ichki etik komissiya”lar faoliyatini jonlantirish.

Beshinchidan, Zahiriddin Muhammad Boburning “bunyodkorlik falsafasi”ga asoslangan holda, yosh kadrlarni “mansab — bu boyish manbai emas, balki xizmat qilish maydoni” degan g‘oya atrofida tarbiyalash.

Taklif: Davlat va jamoat arboblari ishtirokida “Ustoz-shogird” tizimi asosida yosh mutaxassislarda ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi amaliy treninglar tashkil etish.

Xulosa qiladigan bo’sak, yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi, O‘zbekistonning global ishchi kuchi bozorida nafaqat oliy ma’lumotli kadrlari bilan, balki halol va ishonchli professional kadrlar brendi bilan tanilishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligini va xalqaro reytinglardagi o‘rnini tubdan yaxshilaydi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-132-son [Farmoni](#).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son [Qarori](#).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-358-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi “2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-sonli Qarori.

6. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company. - 2014.

6. Chesbrough, H. Open Innovation Results: Going Beyond the Hype and Getting Down to Business. Oxford University Press - 2020.

7. Arntz, M., Gregory, T., & Zierahn, U. The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, No. 189, OECD Publishing. - 2016.

8. Manyika, J., Chui, M., Miremadi, M., & Bughin, J. Artificial Intelligence: The Next Digital Frontier?. McKinsey Global Institute. - 2017.

9. World Bank. Uzbekistan: Digital Economy and Artificial Intelligence for Economic Growth. World Bank. - 2020.

10. <https://wiiw.ac.at/the-impact-of-artificial-intelligence-on-employment-a-new-economic-paradigm-n-620.html>